

## **THE FUNCTIONAL IMPORTANCE OF THE FORMATION OF A COMPETITIVE CULTURE IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL SPIRITUALITY**

**Shakarov Jasurbek Shavkat o'g'li**  
**SaMSU researcher**

**Annotation:** Determining the spiritual and educational foundations for the development of a culture of competition in the Uzbekistan, developing methods and tools that form a rational culture of competition serving national development and economic well-being, expanding the sphere of influence of these tools. great practical significance.

**Key words:** system, competition, culture, social structure.

Insoniyat tarixiy taraqqiyot bosqichlarida azal-azaldan muntazam ravishda o'zaro bir-biri bilan turli sohalarda raqobatlashib kelgan. Raqobatlashuv, ayniqsa, sog'lom va adolatli raqobat jamiyat taraqqiyotining asosiy mexanizmi, harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralgan. Shu bilan bir qatorda raqobat muammosi hamma vaqt ham jamiyat a'zolari tomonidan sog'lom tafakkur doirasida anglab yetilmagan. Ba'zida raqobatlashuv, insonlarning hayoti, turmushi, tinchligi, farovonligiga destruktiv ta'sirga ham ega bo'lgan. Ayniqsa, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sistemasi bilan bog'liq strukturalaridagi nosog'lom raqobat butun bir jamiyat a'zolarining taraqqiyot dinamikasiga salbiy ta'sir etishi mumkinligi aniqlangan. Demak, insoniyat mavjud ekan, u bilan birgalikda hamisha raqobat ham mavjuddir. Ya'ni, jamiyat hayotining eng quyi bug'inlaridan tortib, eng yuqori qatlamigacha turli sohalarda raqobatlashuv hodisasi kuzatiladi.

Turli ijtimoiy strukturalar ba'zida yashirin tarzda, ba'zida esa ochiq-oydin ko'rinishda raqobatlashuv jarayonining ishtirokchisiga aylanishadi. Shuningdek, raqobatlashuv jarayoni oqilona, ochiq va adolatli tarzda kechsagina rivojlantiruvchanlik funksiyasiga ega hisoblanadi, va aksincha yashirin, turli qing'ir amallarga asoslangan, etikaviy mezonlarni chetlab o'tgan raqobatlashuv raqobatlashayotgan sohalarning tanazzuliga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda butun dunyoda barcha sohalarda ommaviy tarzda raqobatlashuv jarayoni shiddat bilan davom etayotganligidan kelib chiqib, mazkur

masalani ilmiy-falsafiy tahlil etish, yangicha usul va vositalar orqali yoshlar tafakkuriga singdirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Sogʻlom tafakkurga asoslangan raqobatlashuv tizimini shakllantirish hamda uni madaniyat darajasiga koʻtarish bugungi zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy taraqqiyot omili hisoblanadi. Bundan kelib chiqib raqobat madaniyatining mohiyati, asosiy funfsiyalari, ilmiy-nazariy mazmuni, strategik tamoyillarini aniqlash hamda falsafiy tadqiqot obykti sifatida yangi imkoniyatlarini ochib berish zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Raqobat tushunchasi koʻplab manbalarda iqtisodiy tushuncha sifatida keltiriladi, yaʼni iqtisodiy kategoriya sifatida u bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xoʻjaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi, bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Yaʼni, raqobat — mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxonalar)lar oʻrtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda oʻz mavqeini mustahkamlash uchun kurashdir. Raqobat koʻp qirrali iqtisodiy hodisa boʻlib, u bozorning barcha subʼyektlari oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi [2]. Shuningdek, **raqobat** — xoʻjalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi boʻlib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda taʼsir koʻrsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi [3; 557].

Raqobat nazariyasini yoritib berishda, uning turlari, shakllari hamda jamiyatdagi ahamiyatini ilmiy asoslashda klassik iqtisod vakillari A.Smit, D.Rikardoning, F.Perru, A.Marshall, Dj.Keyns, V.Leontev, Y.SHumpeter, P.Sraffa, M.Porter, F.Kotler kabi olimlarning xizmatlari kattadir. Ayniqsa, A.Smit raqobat masalasini hulq-atvor bilan bogʻliq ravishda tahlil etadiki, uning bu qarashlari aynan raqobat madaniyati borasida metodologik asoslardan biri sanaladi.

Amerikalik olim M.E.Porterning tadqiqotlariga raqobatning kuchi quyidagi omillar orqali tavsiflanadi:

- ✓ raqobatlashuvchi sotuvchilar oʻrtasidagi bellashuv;

- ✓ bir-birini o‘rnini bosuvchi va narx nuqtai-nazaridan raqobatbardosh bo‘lgan tovarlar o‘rtasidagi raqobat;
- ✓ yangi raqobatchilarning paydo bo‘lish xavfi;
- ✓ mol yetkazib beruvchilarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari;
- ✓ xaridorlarning iqtisodiy imkoniyatlari va savdo qobiliyatlari [4; 224].

Demak raqobat nazariyasi, haqiqatdan ham muayyan ta’sir doirasiga ega bo‘lgan, o‘zining ma’naviy kuchi orqali jamiyat hayotiga ta’sir eta oladigan hodisa hisoblanadi.

Ana shu ma’naviy kuchdan oqilona foydalanish hamda uning imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish lozimki, toki, bu kuch hamisha ezgu maqsadlarga xizmat qilsin. Vaholanki, Raqobat jamiyatni taraqqiyotiga xizmat qiladigan har qanday sohani qamrab oladi. Nafaqat iqtisodiyot, balki, siyosat, ta’lim, tibbiyot, madaniyat, san’at va hokazo sohalarda raqobat jarayoni kuzatiladi. Shu bilan birga raqobat ishtirokchilarining, ya’ni raqobatlashayongan tomonlarning sotsial-iqtisodiy maqomi bir xil emas, shu sababdan, ularning maqsadi ham bir-biridan farq qiladi. Ana shu turli manfaatdor tomonlarning tinch, muzokaraga asoslangan raqobat madaniyatiga egaligi jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda eng muhim vazifalardan biri sanaladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, raqobat madaniyatini shakllantirish nafaqat iqtisodiy soha, balki ma’naviy soha taraqqiyotiga ham konstruktiv ta’sir etadi. Chunki, raqobat madaniyati ham boshqa barcha madaniyat turlari kabi milliy ma’naviyatning asosiy tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. Demak milliy ma’naviyat taraqqiyotida raqobat madaniyati o‘zining funksional imkoniyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Bizningcha bu funksional imkoniyatlar quyidagi jarayonlarda kuzatiladi:

- ✓ jamiyat hayotidagi modernizatsion, innovatsion islohotlar amalga oshirilganda ma’lum bir raqobatchi tomonlarning yagona maqsad sari yo‘naltirishda;

- ✓ turli taraqqiyot davrlarida mamlakatda rivojlanish strategiyalarini qabul qilish va amalga oshirishda adolatli, oqilona raqobat muhitini shakllantirishda;
- ✓ har bir jamiyat a'zosini tafakkurida halol mehnatga asoslangan, turli g'irromliklardan yiroq bo'lgan, oqilona raqobat tushunchasini singdirishda namoyon bo'lishi mumkin.

Shuni ta'kidlashimiz lozimki, raqobat madaniyati har bir davr uchun muhim hisoblanadigan asosiy mohiyatlardan biridir.

Bu mulohazalardan kelib chiqib, xulosa sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

**Birinchidan**, raqobat madaniyati jamiyatdagi raqobatlashuv jarayonlarini tartibga soluvchi, taraqqiyotga yo'naltiruvchi, harakatga keltiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

**Ikkinchidan**, jamiyat hayotida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy rivojlanish strategiyalarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida raqobat madaniyatining funksional imkoniyatlaridan foydalanish islohotlarning konstruktiv taraqqiyotiga zamin yaratadi.

**Uchinchidan**, raqobat madaniyatining milliy-ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish ko'lamini yanada kengaytirish hamda ushbu tushunchaning falsafiy-konseptual tahlilini amalga oshirish bugungi zamon talablaridan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.
2. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Thompson William R. ["Identifying Rivals and Rivalries in World Politics"](#). 2001. International Studies Quarterly 45 (4). 557–586. [doi:10.1111/0020-8833.00214](https://doi.org/10.1111/0020-8833.00214)
4. Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: /пер. с англ. – Международные отношения, 1993, С.224.
5. <https://enc.for.uz/wiki/Raqobat>